

**TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI
FRANSUZ TILI ARAB TILIDAN SO'ZLAR O'ZLASHTIRISHINING
OMILLARI**

Nematov Abdulloh

O'zDTU tarjimonlik fakultetining
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: roman-german tillari
tarjimashunosligi kafedrası
dotsenti **Dadamirzayeva M.V.**
valiyevna73@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidan fransuz tiliga o'zlashlagan so'zlar va ularning kelib chiqishi, qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, o'zlashgan so'zlar, ilm-fan, arabizm.

Аннотация: В этой статье представлена информация о словах, заимствованных из арабского языка во французский, их происхождении и использовании.

Ключевые слова: переводоведение, заимствованные слова, наука, арабизм.

Abstract: This article provides information about words borrowed from Arabic into French, their origins and usage.

Keywords: translation studies, borrowed words, science, Arabism.

Bilamizki barcha tillar bir-biridan so'zlar oladi. Misol uchun, o'z ona tilimiz o'zbek tili ham arab va fors tillaridan ko'plab so'zlar o'zlashtirgan. So'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'zlashtirish juda keng tarqalgan hodisa bo'lib, hech bir til bunday so'zlardan butunlay xoli emas¹ (Jespersion, 1922). Butun dunyoda 7000 ga yaqin til mavjud. Tillar o'zaro aloqada bo'lganda, so'zlarning o'zlashtirilishi natijasida til ob'yektlari bir tildan ikkinchi tilga o'tishi aniqlangan² (Kachru, 1989).

Qiziqarlisi, arablarning ilm-fanni rivojlantirib, ko'plab kitoblar yozishi natijasida o'nlab g'arb davlatlari, ayniqsa, fransuzlar ba'zi so'zlarni o'z tillariga qo'shib olishdi. Shu bilan birga, Fransiyaning Arab mamlakatlari bo'lmish Jazoir, Tunis va Marokashga kirib kelishi ham albatta arab tilidan fransuz tiliga o'zlashlagan so'zlar salmog'ini sezilarli darajada orttirdi. Arab tili dunyodagi eng ko'p gapiriladigan olti tildan biri bo'lib, unda 400 milliondan ortiq so'zlashuvchilar mavjud. Arab tilidan olingan o'zlashmalar Yevropa va Sharq o'rtasidagi turli madaniy va savdo aloqalarini aks ettiradi.

Fransuz tiliga jami 4200 ta so'z o'zlashgan bo'lib, ular quyidagicha bo'lingan:

- ingliz tilidan (25%)
- italyan tilidan (16,8%)
- frank shevasidan (13%)
- arab tilidan (5,1%).

¹ Otto Jespersen Language: Its Nature, Development and Origin, G.Allen & Unwin, 1922

² Braj B.Kachru World Englishes : approaches, issues and resources, Cambridge University Press, 2008

Qadimgi arablar madaniyatining o'rta asrlarda Yevropada madaniyat va ilm-fan rivojiga ko'rsatgan ta'siri alohida e'tiborga loyiqdir. Ilk o'rta asrlar davrida, sxolastika davrida [XIV asr] Yevropada ilmiy tafakkur qotib qolgan, qadimgi yunonlar merosi bilan aloqa uzilganida Sharqda ilm-fan oldinga siljidi³. Qadimgi arablar matematika, astronomiya va tibbiyot sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Ayni shu davrda fransuz tiliga arab tilidan tibbiy – dorishunoslikka oid so'zlar: *alcool* < “*al – kohl*” – aroq, *spirtli ichimlik* ma'nosida, *elixir* < “*al – iksîr*” – “matematik o'lchovlar, birliklar toshi”, *sirob* < “*charâb*”, aslida “ichimlik” degani; matematik terminlar: *zero* < “*sifr*” (har ikkala so'z turli transkripsiyada beriladi), *algèbre* < “*al - djabr*” – algebra fani; astranomik terminlar: *zénit* < “*samt*”, aslida “yo'l” uning kelib chiqish dubleti esa *azimut* < “*as - samt*” – “*le chemin*” ya'ni “yo'l”; kimyo terminlari: *alambic* < “*al – anbîq*” – spirt tayyorlovchi vaza, *alchimie* < “*al – kîmiya*” – “qora jodu, afsun”, *al – cali* < “*al – qâly*” – natriy, soda degan ma'noni bildiruvchi so'zlar va shu kabilar kirib kelgan. Bundan tashqari madaniy va chetdan olib kirilgan mahsulotlar nomi ham mavjud, masalan: *orange* < “*narandj*” – apelsin, *abricot* < “*al – barqoûq*” – o'rik, *artichaut* < “*al – karchoûf*” – artishok (o'tsimon poliz o'simligi), *coton* < “*qutun*” – paxta, *safran* < “*za'farân*” – za'faron, *satin* < “*zaytoûni*”, aslida “*zaytun shahridan*” ma'nosida, Xitoyda shu mato ishlab chiqariladigan bugungi Tsia – Tong shahrining nomidan kelib chiqqan. Arab urf – odatiga tegishli so'zlarni ham fransuz tili tarkibida ko'rishimiz mumkin, ular quyidagilar: *harem* – “*haram*” ma'nosi “himoyalovchi”, *calife* – “*khalîfa*” – “Muhammadning noibi”, *émir* – “*amîr*”, *caîd* – “*qâid*” – “qabila boshlig'i”, *fellah* – “*fallâh*” – (*cultivateur*) – dehqon.

Xalq boshqa bir xalq tilida paydo bo'lgan tushuncha va so'zni o'zlashtirib olish bilan birga, shu predmet va tushunchani ham qabul qilib oladi. Bu leksik o'zlashtirma deyiladi. Leksik o'zlashtirmalar yangi tilga o'zlashuvi shakli o'laroq o'zlashilgan tilda o'z o'rniga ega bo'ladi. Xususan, birinchi holatda, ikki tilli xalqlarning jonli muloqoti orqali yoki moddiy madaniyat buyumlarini nomini o'zlashtirilishi orqali singadi. Bunda, o'zlashayotgan so'zlar tezroq va to'liq yangi tilda assimilyasiyalashadi. Ikkinchi holatda, begona so'zlar boshqa tillardan tarjimalar orqali o'zlashadi. Bunda, yangi o'zlashgan so'zlar ko'proq o'zining fonetik, orfografik va grammatik xususiyatlarini saqlab qoladi. O'zlashtirmalar tabiatiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ifodalash orqali amalga oshadi. Leksik o'zlashtirmalarning asosiy yo'llarini tasniflaganda nushalash, transkripsiya, transliterasiya va semantik o'zlashtirish shakllarini ajratishimiz mumkin. Shubhasiz bu leksik o'zlashtirmalar tarjimashunoslikda ham batafsil o'rganiladi.

Hozirgi kunda ham Fransiyada iste'molda bo'lgan “le vizir” ya'ni “وزير” yoki “le sucre” arabchada “سكر” so'zlari o'z ma'nolarida – shakar va vazir ma'nolarida qo'llaniladi. Boshqa nomlar masalan “mawsim” – “موسم”, (mavsum) “amiral” – “امير البحر” (admiral) ayniqsa “le cotton” – “قطن” (paxta) va “alcohol” – “كحول” (alkogol) so'zlari keng tarqalgan. Ichimliklardan “sarbat” – “شربت” (sharbat) “sirop” – “شروب” (sirop) va “café” – “قهوة” (qahva) fransuz tiliga arab tilidan kirib kelgan hisoblanadi. IX-

³ Versteegh, K. The Arabic language. – Columbia University Press, 1997

XII asrlarda arablarning ilm-fani taraqqiy etdi va o'sha paytdagi ko'p ma'naviy-ma'rifiy manbalar arab tilida bo'lgan. Shu sababdan, dorivor o'simlik bo'lmish "safran" - "زعفران" (zafaron) yoki ayrim fan nomlari: "algèbre" - "الجبر" (algebra), "alchimie"⁵ - "كيمياء" (kimyo) iste'molga kiritilgan.

Yuqoridagi barcha so'zlar arab tilida ham fransuz tilida ham bir ma'noni ifodalaydi, ammo shunday so'zlar borki ular arab tilidan o'zlashgan bo'lsada, fransuz tilida boshqa maqsadda ishlatiladi. Masalan "hasard" - "الزهر" fransuz tilida imkoniyat arab tilida esa gul, "le chiffre" - "صفر" fransuz tilida raqam arab tilida nol degan ma'noni anglatadi.

So'nggi so'z o'rnida aytish mumkinki, Fransuzlarning arab tilidan so'z olishining sabablari tarixiy, madaniy va ilmiy jarayonlarga bog'liq. Quyidagi asosiy omillar bunga sabab bo'lgan:

1. Islomiy Oltin Davr (VIII–XII asrlar):

O'sha davrda arab olimlari matematika, tibbiyot, astronomiya, falsafa va boshqa sohalarda katta yutuqlarga erishgan. Ularning ilmiy asarlarini lotin va boshqa tillarga tarjima qilish davomida ko'plab arabcha atamalar fransuz tiliga ham kirib kelgan.

2. O'rta asrlardagi savdo aloqalari:

Arab davlatlari va Yevropa mamlakatlari o'rtasida savdo aloqalari juda rivojlangan edi. Bu savdo davomida yangi mahsulotlar va ularning nomlari bilan birga arab so'zlari ham fransuz tiliga o'tgan.

3. Andaluziya orqali.

Bu yerda ishlangan ko'plab arabcha asarlar va atamalar fransuz tiliga Ispaniya orqali kirgan.

4. Arabcha-lotinchalik tarjimalar orqali kirgan so'zlar:

Ko'pgina arabcha asarlar dastlab lotin tiliga, keyin esa fransuz tiliga tarjima qilingan. Shu jarayonda arab tilidan olingan ilmiy va texnik so'zlar tilga singib ketgan.

5. Kolonializm davri:

Yuqorida aytilganidek XIX–XX asrlarda Fransiya ko'plab arab davlatlarini mustamlaka qildi. Albatta bu voqealar millatlarning tiliga ta'sir etmay qolmas edi. Shu tufayli, ko'plab so'zlar fransuz tiliga arab tilidan kirib kelgan.

Tarjimonlar ham yuqorida keltirilgan kabi import qilingan so'zlardan o'z o'rnida va me'yorida foydalanilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Salomov. G' Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. Badiiy tarjima haqida. T., 1973.
2. Le dictionnaire étimologique des mots français d'origines arabes, books.google.com
3. Ibragimov.X, Mamadaliev.A, Mansurov.U va boshqalar. Fransuzcha – o'zbekcha lug'at, Toshkent, 2008
4. Salah Guemriche Dictionnaire des mots français d'origine arabe explore l'histoire et l'étymologie de plus de 400 mots